

BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI

Urunbayeva Yu.P

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Akramova Sabrina Isroil qizi

sabrinakramova1@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada iqtisodiy o'sishni ekologik muvozanat va ijtimoiy tenglik bilan birga olib borishga qaratilgan konsepsiyalardir. Yashil iqtisodiyot iqtisodiy faoliyatni ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishga qaratadi, barqaror rivojlanish esa kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini yo'qotmasdan hozirgi ehtiyojlarni qanoatlantirishga intiladi. Shu bilan birga bu ikki konsepsiya bir-birini to'ldiradi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni birgalikda hal qilish uchun qo'llanadi.*

Kalit so'zlar: *Iqtisodiy rivojlanish, tabiiy resurslar, ekologik muammolar, yashil iqtisodiyot, atrof muhitni muhofaza qilish, energiya manbai, texnologik modernizatsiya, yashil energitika, barqaror rivojlanish, ijtimoiy qatlam, ekologik xavfsizlik, iqlim o'zgarishi, innovatsion rivojlanish, ekotizim muhofazasi, yashil moliya, aholi bandligi, rivojlanuvchi konsepsiya.*

Annotation: *This article examines the relationship between economic growth and environmental balance and social are concepts aimed at achieving equality. The green economy focuses economic activity on reducing environmental risks and using natural resources efficiently, while sustainable development seeks to meet the needs of the present without compromising the ability of future generations to meet their own needs. At the same time, these two concepts complement each other and are used to jointly solve socio-economic problems.*

Keywords: *Economic development, natural resources, environmental problems, green economy, environmental protection, energy source, technological modernization, green energy, sustainable development, social stratum, environmental safety, climate change, innovative development, ecosystem protection, green finance, population employment, developing concept.*

Kirish

Hozirgi globallashuv davrida iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bu –yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish strategiyalaridir. Yashil iqtisodiy globallashuv sharoitida iqtisodiy o'sish bilan birga ekologik muvozanatni saqlash masalasi muhim ahamiyat kasb

etmoqda. Tabiiy resurslarning cheklanganligi, iqlim o'zgarishi, ifloslanishning ortishi barqaror rivojlanish g'oyalari ilgari surishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot konsepsiyalarining mohiyati, ularning o'zaro bog'liqligi va amaliy ahamiyatini o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Barqaror rivojlanishda hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirgan holda, kelajak avlodlarning ham farovon hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni saqlab qoluvchi uzoq muddatli rivojlanish modelidir. Ushbu konsepsiya birinchi bor 1987-yilda BMTning "Bizning umumiy kelajagimiz" hisobotida rasman ilgari surilgan. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi va uning asosiy maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va investitsiyalar faolligini oshirish bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Bunda asosan barqaror rivojlanish tamoyillari yashil iqtisodiyot konsepsiyasi uchun muhim omil hisoblanadi shu bilan birga barqaror rivojlanish o'lchovlari va tarkibiy qismlari uning asosiy negizi hisoblanib, ekotizimlar, biologik xilma –xillik va biologik mahsulot bo'lib barqaror iqtisodiyotni qurish uchun asosiy omillardan biridir. Yaqin kelajakda sayyoramizda kuzatilgan va kuzatilishi mumkin bo'lgan tabiiy ofatlar va ekologik muammolarni oldindan ko'ra bilish hamda ularni sodir bo'lishini oldini olish uchun ko'riladigan yorqin chora tadbirlardan biri yashil iqtisodiyot hisoblanadi biz uni yanada mustahkam va ommabop ishlab chiqishimiz uchun iqtisodiy o'sish bilan birga qashshoqlikka barham berish, sifatli ta'lim, toza energiya, mas'uliyatli iste'mol, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash va shu kabi sal'biy oqimlarga barham berish lozimdir. Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot konsepsiyasi chuqur integratsiyalashgan holda barqaror rivojlanishning umumiy strategik maqsad bo'lsa, yashil iqtisodiyot ushbu maqsadga erishishning samarali iqtisodiy mexanizmi hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot amaliy choralar orqali barqaror rivojlanishning ekologik va iqtisodiy ustunlarini mustahkamlaydi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarining kengayishi nafaqat energiya xavfsizligini ta'minlaydi, balki atmosferaga chiqariladigan zararli gazlarni kamaytiradi. Suvni tejovchi texnologiyalar esa qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirgan holda ekologik resurslarni asrashga xizmat qiladi. Shu kabi islohotlar mamlakatning ekologik barqarorligini ta'minlash bilan birga, iqtisodiy rivojlanishga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Barqaror rivojlanishning asosiy o'lchovlari hamda uning strategiyalari asosan 3 bosqichda amalga oshiriladi va barqaror rivojlanish tendensiyalarini namoyon qilib beradi, shu bilan bir qatorda iqtisodiy o'sish mohiyatini yashil iqtisodiyot bilan bog'lab beradi.

Iqtisodiy barqarorlik — samarali iqtisodiy o'sish, texnologik modernizatsiya va raqobatbardoshlik bo'lib yashil iqtisodiyotni tubdan yangicha shakllantirishni o'z ichiga oladi, foyda keltiradigan ishlab chiqarish va iste'mol shakllari va atrof muhitga minimal

sal’biy ta’sir ko’rsatadigan aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan birlamchi yechim hisoblanadi.

Ijtimoiy barqarorlik — tenglik, aholining ijtimoiy himoyasi, sifatli ta’lim va tibbiyot xizmatlari hisoblanib, ijtimoiy adolat hamda aholi faravonligining barqaror ta’minlanishi bo’lib, iqtisodiy o’sish bilan birga ijtimoiy siyosat va fuqarolarning faol ishtiroki orqali bir xil tenglikda baholanadi.

Ekologik barqarorlik — resurslarni muhofaza qilish, chiqindilarni kamaytirish, tabiatni asrab-avaylash yashil iqtisodiyot rivojlanishi uchun yana bir muhim omil bo’lib qolmoqda, shu bilan bir qatorda resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolarning sal’biy oqibatlari natijasida yashil iqtisodiyotga obyektiv yondashuv paydo bo’lmoqda. Barqaror rivojlanishni ta’minlash mobaynida yashil iqtisodiyotning o’rni ko’plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy strategiyalari va dastur hamda rejalariga kiritilgan. Ular resurslardan samarali foydalanish, uglerod izini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash orqali jamiyatning uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda ko’plab davlatlar yashil energetika, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik standartlar joriy etish orqali barqaror rivojlanishga erishish yo’lidan bormoqda.

Shuningdek, hozirgi 2025- yil „Atrof muhitni asrash va Yashil iqtisodiyot yili“ buning yaqqol ifodasi hisoblanadi, bunda ekologik xavfsizlikni ta’minlash bilan bir qatorda atrof muhitga sal’biy ta’sirni kamaytirish kabi barqaror rivojlanish yo’nalishlari ham innovatsion texnologiyalar bilan chambarchas bog’liqdir. Masalan, „Yashil texnologiyalar“ yoki „Yashil iqtisodiy o’sish“ ham ekologik toza ishlab chiqarish atrof muhitni asrash va aholigaxizmat ko’rsatish modeliga o’tish barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy qismi desak mubolag’a bo’lmaydi. Shuni ham ta’kidlash joizki, barqaror rivojlanishning asosiy talabi tabiiy resurslarni tejab ishlatish va 2025 yilda energiya samaradorligini oshirish, suv resurslaridan unumli foydalanish qayta tiklanuvchi energiyaloyihalarini kengaytirish rejalarini shu tamoyilga xizmat qiladi. Bundan tashqari, jamiyatni rivojlantirish, yashil infratuzilmalarni barpo etish, kanalizatsiyadan foydalanishni yaxshilash orqali yashil innovatsion loyihalar jamiyatda yashash sharoitini yaxshilaydi va iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi, bu esa barqaror rivojlanish uchun asosiy turtki bo’ladi. Yashil bozorlarga kirish jamiyatda kam ta’minlangan qatlamning yashil ta’minot zanjirlari va bozorlariga qo’shilishni qo’llab- quvvatlash orqali yashil moliya tizimini kengaytirish mumkin, bu kichik imkoniyatlar orqali yashil integratsiya kengayadi va barqaror rivojlanishda jamiyat uchun katta foyda keladi.

Yashil iqtisodiyotga o’tishda O‘zbekiston tajribasi

O‘zbekiston Respublikasi ham barqaror rivojlanish tamoyillarini milliy siyosatga faol tatbiq etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-2030 yillarda O‘zbekiston

Respublikasining „Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi“ qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga ko‘ra iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish, tabiiy resurslarini oqilona iste‘mol qilish ustunvor yo‘nalishlari deb belgilandi. Shuningdek, 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning tarqqiyot strategiyasida Yashil iqtisodiyotga o‘tish islohoti doirasida yashil va inklyuziv o‘shishni ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish masalalari belgilab olingan. Shu bilan bir qatorda O‘zbekistonda “Yashil energiya” loyihalari, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish jadal rivojlanmoqda. Samarqand, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida yirik quyosh (PV) stansiyalari qurildi, shu kabi loyihalar 2030 yilgacha qayta tiklanuvchi energiya ulushini 40% ga yetkazish maqsad qilingan. O‘zbekiston uchun yashil iqtisodiyotga o‘tish strategik ustunvor yo‘nalish bo‘lib ekologik transport, qayta tiklanuvchi energiya va Orolbo‘yi hududini tiklash kabi yo‘nalishlarda tajriba olib bormoqda. Bu jarayon ekologik barqarorlik hamda energiya xavfsizligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib qolmoqda va eng asosiysi O‘zbekiston Yashil iqtisodiyotga o‘tishda o‘z mavqeyini saqlab bormoqda.

Xulosa

Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot bugungi zamonaviy dunyoning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda balki kelajak avlodlar uchun qulay yashash muhitini yaratishga xizmat qiladi. Kelajakda yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar mamlakatning barqaror rivojlanishiga turtki bo‘ladi va uning ekologik tashabbuslarida tabiat bilan bog‘liq uyg‘unlikda rivojlanish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun yashil iqtisodiyot konsepsiya uning eng muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu konsepsiya insonning turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, iqtisodiy tiklanish va rivojlanishga erishishdan iborat bo‘ladi va bu jarayon keng jamoatchilik ishtirokini talab qiladigan mashaqqatli jarayon hisoblanib, aholi uchun yuqori daromad manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., va boshqalar. Yashil iqtisodiyot: Darslik_ Toshkent.: Universitet, 2020. (262- bet).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti „Yashil iqtisodiyotga o‘tish“ to‘g‘risidagi qarori (PQ-4477 04.10.2019).

3. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion Rivojlanish Vazirligi (<https://mininnovation.uz.>).
4. 2030 yilgacha O‘zRning „Yashil“ iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sayti.
5. UNEP. Green Economy Report: Towards a Green Economy – Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication, 2011.
6. Brundtland, G. H. Our Common Future. United Nations World Commission on Environment and Development, 1987.
7. Jo‘rayev, B., Raxmatullayev, S. Yashil iqtisodiyot va ekologik boshqaruv. Toshkent: Iqtisodiyot universiteti nashriyoti, 2022.
8. Xalilov, N., To‘xtasinov, S. Ekologiya va barqaror rivojlanish asoslari. Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2021.
9. Urumbayeva Y. P. „Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish“ jurnali. 2025-yil 3- son. 156-165- sahifa.
10. Urumbayeva Y. P. „Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish muammolari“ Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 18 aprel Samarqand -2025. 380-384 betlar